
Shahrimiz vakillari ham haj ziyoratini ado etib vatanga qaytishdi

Bugun Farg'ona shahri hojilar Saudiya Arabistonidan yurtimizga qaytib kelishdi. Muqaddas Makka va Madina zaminidan qaytayotgan yurtdoshlarimiz Namangan xalqaro aeroportida hokimlik mutasaddilari, O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakillari xodimlari va hojilarning yaqinlari tomonidan hurmat-ehtirom bilan kutib olindi.

Shundan so'ng, 83 nafar ziyoratchilar Farg'ona shahar hokimligiga yetib kelishdi. Ular mahalliy hokimlik vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda oila a'zolari va yaqinlari bilan diydor ko'rishdilar.

Hojilar yuzida Islom dinining beshinchi farzini ado etilgani fayzi, shukronalik hissi va yurt sog'inchi ifodasi ko'rinib turardi. Ko'tarinki kayfiyat va shukronalik hissi bilan Yurtimizga qaytgan ziyoratchilar yuqori saviyada tashkil etilgan muborak safar uchun barcha tashkilotchilarga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2022-07-23 11:41:16